

JAHON TAMADDUNIDA O'RTA ASRLAR**Mamatmusayeva Kamola Iskandar qizi***Qurolli Kuchlar davlat muzeyi ilmiy xodimi*

Annotatsiya. *Insoniyat tarixi olimlar tomonidan uchta katta guruhga bo'lingan: qadimgi dunyo, o'rta asrlar va zamonaviy davr. O'rta asrlar Rimning qulashidan yangi davrgacha, ya'ni XV asrgacha bo'lgan vaqtni qamrab oladi. Bunday katta vaqt oralig'i haqida gap ketganda, boshlanish va tugash sanalarini aniq aytish mushkul. Bu davr harbiy yurishlar, mamlakatlarning yo'qolishi yoki xarobaga aylanishiga olib kelgan tarixiy ahamiyatga ega davr sanaladi. Bu davr o'z navbatida, o'rta asrlar tarixiy asoratlari va yangi harbiy strategiyalar yaratishga olib kelgan davr bo'lib, dunyo tarixidagi yuqori darajadagi harbiy faoliyatlarni ifodalashga imkon bergan.*

Kalit so'zlar: *tarix, o'rta asrlar, harbiy san'at, Amir Temur, harbiy yurish, taktika, "Temur Tuzuklari", armiya, qo'shin, lashkar, lashkarboshi, harbiy tizim*

Аннотация. *Историю человечества ученые делят на три большие группы: древний мир, средневековье и новое время. Средние века охватывают период от падения Рима до новой эры, то есть до XV века. Имея дело с таким большим периодом времени, трудно точно сказать даты начала и окончания. Этот период считается периодом исторического значения, который привел к военным кампаниям, потере или разрушению стран. Этот период, в свою очередь, привел к созданию средневековых исторических осложнений и новых военных стратегий, которые позволили выразить военную деятельность высокого уровня в мировой истории.*

Ключевые слова: *история, Средневековье, военное искусство, Амир Темур, военный поход, тактика, «Тузуклари Темура», армия, армия, армия, военачальник, военная система*

Abstract. *Human history is divided by scientists into three large groups: the ancient world, the Middle Ages, and the modern era. The Middle Ages cover the period from the fall of Rome to the new era, that is, to the 15th century. When dealing with such a large period of time, it is difficult to say exactly the beginning and end dates. This period is considered a period of historical importance, which led to military campaigns, the loss or destruction of countries. This period, in turn, led to the creation of medieval historical complications and new military strategies, which allowed for the expression of high-level military activities in world history.*

Key words: *history, the Middle Ages, military art, Amir Temur, military campaign, tactics, "Temur's Tuzuklari", army, army, army, army chief, military system*

O'rta asr. O'rta asrlar — tarix fanida jahon tarixining qadimgi dunyo tarixi bilan yangi tarix oralig'idagi davrni ifodalash uchun qabul qilingan atama hisoblanadi. O'rta asr tushunchasi 15—16-asrlarda italyan tarixchilari asarlarida vujudga kelgan bo'lib, fanda 18-asrdan ifodalanilgan. Dastlab G'arbiy Yevropa mamlakatlari tarixiga nisbatan

ishlatilgan bo'lsa-da. o'rta asrlar dunyo tarixining V asrdan XV asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va milodiy 476-yilda g'arbiy rim imperiyasi qulagandan boshlangan. Jahon tarixi V asrdan XV asrga qadar ko'plab tarixiy jarayonlar bosib o'tgan. O'rta asrlar dunyo tarixida harbiy yurishlar va tartibsizliklar davri hisoblanadi. Bu davr harbiy yurishlar, mamlakatlarning yo'qolishi yoki xarobaga aylanishiga olib kelgan tarixiy ahamiyatga ega davr sanaladi. Bu davr o'z navbatida, o'rta asrlar tarixiy asoratlari va yangi harbiy strategiyalar yaratishga olib kelgan davr bo'lib, dunyo tarixidagi yuqori darajadagi harbiy faoliyatlarni ifodalashga imkon bergan. Shuningdek, bu davr dunyo tarixida yirik harbiy yurishlar natijasi o'laroq, xalqaro aloqalar ustida qo'riqlanish va yangi hududlarni o'zlashtirish davri ham bo'lgan. Harbiy yurishlar kelajakdagi janglar uchun katta tajribaga ega bo'lgan hujum, harbiy taktikalar va to'g'ridan-to'g'ri tarixiy, iqtisodiy, siyosiy muommolarga asos bo'lgan zamonlarga tayyorlash imkonini berdi. Bu davrda harbiy yurishlar o'ziga xos qo'llanmalardan, o'z davrining so'nggi texnologiyalarini qo'llash va qo'shimcha harbiy o'rinlarni qo'llashdan foydalanishdan iborat bo'lgan, bu esa harbiy tashkilotlarning va harbiy strategiyalarining rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Harbiy yurishlar o'rta asrlarda tarixiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarga ham ta'sir qilgan. Ular davlat va hukmronlik tuzilishlarini o'zgartirgan, xalqaro munosabatlarni ko'paytirgan va mamlakatlar o'rtasidagi hisob-kitoblarni o'zgartirgan. Harbiy yurishlar tarixiy o'rganish uchun muhim foydalanish manbalaridir, ular orqali o'zaro ta'sir va aloqalar, hududlar va janglar haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. O'rta asrlarda harbiy yurishlar, urush sirlari va taktikalar o'rganish, harbiy san'at va fanlarni rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu davrda harbiy tashkilotlar urush sirlari va taktikalar, askariy o'zgarishlar va qo'llanmalarni yanada rivojlantirishga harakat qildi. Bu, harbiy ilm-fanining rivojlanishi va jang chog'ida mustaqil foydalanganlikning o'rnatilishi bilan bog'liq harbiy amaliyotning yangi bosqichlarga o'tishi bilan natijalandi. Harbiy yurishlar o'rta asrlarda aholining iqtisodiyot va madaniyat sohasiga ham ta'sir qildi. Yurishlar o'rtasidagi qo'shimcha harbiy o'rinlar, talonchilik va yaqin do'stlar bilan birga aholining hayoti va istiqboli bo'yicha muhim o'zgarishlarga olib kelgan. Harbiy yurishlar orqali xalqaro munosabatlar va diplomatiya ham mustaqil yurishlarni yaratishga imkon berdi. O'rta asrlarda harbiy yurishlar haqida tarixiy ma'lumotlar o'rganilishi, ularning asosiy sabablarini tushunish va harbiy strategiyalar, taktikalar va qo'llanmalar asosida mustaqil yurishlar o'tkazishga tayyorlanish muhimdir. Bugungi kunda ham harbiy yurishlar tarixiy bilimning muhim qismidir va ularga asoslanilgan rivojlanayotgan harbiy strategiyalar, sanoat mahsulotlari, taktikalar va sirlar yangi janglar uchun o'rganish va tayyorlash jarayonida foydalanilmoqda. Dunyo tarixida va so'nggi o'rta asrlar tarixiy jarayonlarining salmoqli o'rni Sohiqiron Amir Temur egallaydi. Amir Temur o'zining ulkan saltanat barpo etishdek ulkan maqsadni ro'yobga chiqarish maqsadida Hindiston, Xuroson, Eron, Oltin O'rda, Mug'uliston va boshqa ko'plab o'lkalarga qarshi muvofaqqiyatli yurishlarni amalga oshirdi. Ushbu keng ko'lamli yurishlar davomida Sohibqiron tomonidan bir-biridan mukammal bo'lgan turli jang

usullaridan foydalaniladi. Amir Temur tomonidan janglarda qo'llanilgan harbiy taktikalar tufayli qo'shinda kam yoqotishlar bilan birin-ketin ko'plab bo'ysunmas qal'alar zabt etiladi. Shu boisdan, harb tarixi Temurbekni jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida haqli ravishda tan oladi. Sohibqiron jahonda birinchi bo'lib raqibga mos tarzda baho berib, o'n ikki ming, qirq ming va qirq mingdan ziyod raqibga mos tarzda jang usullarini joriy etgan. Buyuk sarkarda jang usullarini munosib tarzda amalga oshirish uchun lashkarboshilar bilan munosabat masalalariga ham katta e'tibor qaratishi ham qo'shinning janglarda g'alabalarini ta'minlagan. Amir Temurning asosiy qo'shin yon qanotlarini himoya qilish uslubi jahon jang san'ati rivoji qo'shgan ulkan hissalaridan biri bo'ldi. Amir Temur o'z davrining buyuk sarkardasi hisoblanib, o'sha davrgacha hech qaysi qo'shinlar va harbiy to'qnashuvlarda qo'llanilmagan yangi tartib va usullarni joriy etgan. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari o'z armiyalarini tarbiyalash jarayonida Sohibqironning harbiy jang usullaridan foydalanishi ham uning buyuk sarkarda sifatida mustahkam qo'shin bilan bir qatorda, harbiy janglarga joriy etgan tartib va taktikalarining mukammal tuzilganidan dalolat beradi. Amir Temur yirik janglar bilan bir qatorda kichik harbiy to'qnashuvlarga ham katta e'tibor qaratadi. Uning buyrug'iga ko'ra jang maydonida g'animlar qo'shini soni o'n ikki mingdan kam o'tliqdan iborat bo'lganda, lashkarlarga amir ulumaro qo'mondonlik qilgan. Shuningdek, jangda aymoq va tumanlardan o'n ikki ming o'tliq unga hamrohlik qilgan. Amir ul-umaroga mingboshilar, yuzboshilar va o'nboshilar hamrohlik qilib, dushman qo'shinlariga bir kunlik masofa qolganda Sohibqironga xabar berishgan. Ushbu harbiy qo'shinning oz sonli bo'lishiga qaramay buyuk sarkardaning taktik jihatdan qo'shinni to'g'ri joylashtirishi janglarda g'alabani ta'minlovchi asosiy omil bo'lgan⁷. Jumladan, "Temur tuzuklari" da shunday keltiriladi: "Amr qildimki, o'shal o'n ikki ming o'tliq askarni to'qqiz qismga bo'lsinlar, ushbu tartibda: qo'lda bir favj, barong'orda uch favj, javong'orda uch favj, hirovulda-bir favj va qorovulda-bir favj tursin. Barong'orning o'zi hirovul, chopovul va shiqovuldan iborat bulsin. Shunga o'xshash, javong'or ham hirovul, chopovul va shiqovuldan iborat bo'lsin"⁸. Amir Temur qo'shinning tuzulishi bilan bir qatorda, uning joylashuviga ham alohida e'tibor qaratgan. Sohibqiron Amir ul-umaroga urush maydonini tanlashda to'rt holatini nazarda tutishi lozimligini amr etadi. Bular:

Birinchisi- u yerning suvga uzoq-yaqinligi.

Ikkinchisi-askar saqlaydigan yerning xavfsizligi.

Uchinchisi-g'anim lashkari turgan yerdan teparoqqa joylashishi va oftobga ro'baro' bo'lmasligi, toki quyosh shu'lasi sipohiylar ko'zini qamashtirmasin.

To'rtinchisi-urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo'lishi lozim.

O'sha davrlarda deyarli barcha xalqlar urush vaqtida tartibli saflarda tizilmasdan, to'da-to'da bo'lib, taktik mulohazalarsiz jang qiladigan, o'z jasurligiga

⁷ I. M. Muminov "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli". Toshkent, Fan, 1968.

⁸ Ma'sul muharrir J. Rahimov "Temur tuzuklari". Toshkent. Shodlik. 2020, 124-bet.

berilib ketib, dushmanga tartibsiz ravishda tashlanadigan bir vaqtda Amir Temurlashkarlari tartibli saflarga tizilgan va bir necha qismlardan iborat bo'lar, hamda ular jangga birin-ketin kiritilib, nihoyat, so'nggi hujumlar bilan dushman kuchsizlantirilib, holdan toydirilgach, eng saralangan jangchilardan tuzilgan, har doim g'alabani ta'minlashi mumkin bo'lgan, kuchli va bardam rezerv janggi kiritilardi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Amir Temur har bir yurishlarida o'ziga xos taktika, harbiy tizim ishlab chiqolgan va shu sababli dunyo tarixining yetakchi sarkardalari orasida eng yuqori baholandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, o'rta asrlar tarixida har bir soha rivoj topib borgan. Tarixiy manbalarni o'rganish jarayonlarida mamlakatlar tarixini mamlakatlarning paydo bo'lishi tarixi, ijtimoiy-madaniy hayoti, ilm-fan taraqqiyoti, ichki va tashqi siyosati kabi jihatlar bilan o'rganish barobarida harbiy jihatlari, xususan davlatlarning olib borgan harbiy siyosatini o'rganish ham alohida o'rin tutadi. Harbiy yurishlar orqali o'zaro ta'sir va aloqalar, sanoat va texnika rivojlantirish, xalqaro diplomatiya va siyosiy munosabatlar yaratish, madaniy va ilmiy o'zgarishlar kiritish hamda urush san'atini rivojlantirish imkoniyatlari ortib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekidton ensiklopediyasi (2000-2005) yil malumotlari.
2. O'rta asrlar tarixi/F.Bozorov, F.Salimov. Qo'llanma. 2007
3. M. Muminov "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli". Toshkent, Fan, 1968.
4. Ma'sul muharrir J. Rahimov "Temur tuzuklari". Toshkent. Shodlik. 2020, 124-bet.

INTERNET NASHRLARI:

1. [http.wiki.uz](http://wiki.uz)
2. sinaps.uz
3. UzPediya.uz.